

6 sinf Matematika III chorak 5-BSB topshiriqlari va mezonlari

Bob	Mavzu	Baholanadigan ko'nikma	Namunaviy topshiriq	Ajratilgan ball	To'g'ri javob	Baholash mezonlari
IV bo'lib. Foizlar (12 soat)	Berilgan foiz va qismga ko'ra miqdorning o'zini topish	Berilgan foiz va qismga ko'ra miqdorning o'zini topa oladi; Berilgan qism va foizga ko'ra miqdorning o'zini topishga doir matnli masalalarni yecha oladi	Saodat opa 30% chegirma bilan 1050000 so'mga televizor sotib olgan bo'lsa, televizorning chegirmasiz narxini toping.	3	1500000 so'm	1) Televizor narxi chegirma bilan avvalgi narxining necha foizi (70 %)ga teng bo'lib qolganini topsa, 1 ball ; 2) Televizor narxi chegirma bilan avvalgi narxining necha foiziga teng bo'lib qolganini topib, 1 foiz necha so'm (15000 so'm)ga to'g'ri kelishini to'g'ri topsa, 2 ball ; 3) 1 foiz necha so'mga to'g'ri kelishini to'g'ri topib, televizorning chegirmasiz holatdagi narxi (1500000 so'm)ni topsa, 3 ball .
	O'sish yoki kamayish foizlarini topish	Kamayish foizini topa oladi; Hayotiy vaziyatlardan olingan ma'lumotlar asosida foizning o'zgarishi qanday hisoblanishini tushuntira oladi; O'sish yoki kamayish foizini topishga doir matnli masalalar yecha oladi	Kitobning narxi 16000 so'm edi. Chegirmadan keyin uning narxi 12800 so'mga tushdi. Kitobning narxi necha foizga kamaygan?	2	20 %	1) Kitobning narxi qancha (3200 so'm)ga o'zgarganini to'g'ri topsa, 1 ball ; 2) Kitobning narxi qanchaga o'zgarganini to'g'ri topib, kamayish foizi qiymati (20 %)ni to'g'ri topsa, 2 ball .
		O'sish foizlarini topa oladi; Hayotiy vaziyatlardan olingan ma'lumotlar asosida foizning o'zgarishi qanday hisoblanishini tushuntira oladi;	Olma va nok solingan savatdagi mevalarning 40 foizi olma edi. Olmalarning yarmi sotildi. a) Olmalar sotilganidan so'ng savatdagi noklarning foizi kamaydimi, oshdimi yoki o'zgarmasdan qoldimi?	4	a) oshdi; b) 75 %	1) Savatdagi mevalarning necha foizi (60 %)ni noklar tashkil qilishini to'g'ri topsa, 1 ball ; a) savolga to'g'ri javob bersa (noklarning foizi oshdi), 2 ball ; 2) Olmalarning yarmi sotilganidan keyin, savatda necha foiz (80 %) meva qolganini aniqlay olsa, 1 ball ;

		O'sish yoki kamayish foizini topishga doir matnli masalalar yecha oladi	b) Noklar savatda qolgan mevalarning necha foizini tashkil qiladi?			3) Olmalarning yarmi sotilganidan keyin, savatda necha foiz meva qolganini aniqlab, noklar uning necha foizi (75 %)ni tashkil qilishini to'g'ri topsa, 2 ball ; 4) Ikkala savolga ham to'g'ri javob bersa, jami 4 ball .
	Foizlarga doir matnli masalalar	Berilgan sonning foizini topa oladi; Berilgan foizga ko'ra miqdorning o'zini topa oladi; O'sish va kamayish foizlarini topa oladi; Foizlarga doir matnli masalalarni yecha oladi	Hamid aka do'kondan 20% chegirma bilan 6000000 so'mga telefon sotib oldi. Do'kondan xuddi shunday telefonni Tohir aka 6300000 so'mga sotib olgan bo'lsa, Tohir akaga necha foiz chegirma berilgan?	3	16 %	1) Telefonning asl narxi (7500000 so'm)ni to'g'ri topsa, 1 ball ; 2) Telefonning asl narxini to'g'ri topib, Tohir aka necha so'm (1200000 so'm) chegirma bilan olganini to'g'ri topsa, 2 ball ; 3) Tohir aka necha so'm chegirma bilan olganini to'g'ri topib, uning foiz (16 %)ni to'g'ri topsa, 3 ball .
		Berilgan sonning foizini topa oladi; Berilgan foizga ko'ra miqdorning o'zini topa oladi; Foizlarga doir matnli va murakkabroq matnli masalalarni yecha oladi	1-idishda 60 litr va 2-idishda 40 litr meva sharbat bor edi. Bobur 1-idishdagi sharbatdan qanchadir qismini sotdi va sharbat miqdori 15% ga kamaydi. 2-idishga qanchadir sharbat quydi va sharbatning miqdori 40% ga oshdi. Sharbat umumiy miqdorining o'zgarish foizi qanday bo'ldi?	3	7 % ga ortdi	1) Birinchi (51 litr) yoki ikkinchi (56 litr) idishdagi sharbat necha litr bo'lib qolganini aniqlasa 1 ball ; ikkalasini ham aniqlasa 2 ball ; 2) Ikkala idishdagi sharbatlar miqdori (107 litr)ni aniqlab, avvalgisiga nisbatan necha foiz (7 % ga ortganini)ga o'zgarganini to'g'ri topsa, 3 ball .
Jami				15 ball		

Izoh: Ushbu materiallar o'qituvchiga BSB topshiriqlarining qaysi bob va mavzudan ekanligi, shuningdek, qaysi ko'nikmani rivojlantirishga xizmat qilayotganligi haqidagi ma'lumotni beradi.

O'qituvchi yuqoridagi ma'lumotlar asosida BSB topshiriqlarning turli variantlarini shakllantirishi mumkin.